

**KURSANTLARNING HUQUQIY MADANIYATINI
RIVOJLANTIRISHDA KREATIV YONDASHUV VA DUAL
TA'LIMNING AHAMIYATI**

Xodiev Rustamjon Hamdamovich –

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining
o'quv-uslubiy bo'limi boshligi o'rinbosari*

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimi nafaqat bilim berish, balki shaxsni har tomonlama shakllantirish, kasbiy va huquqiy jihatdan yetuk kadrlarni tayyorlash vazifasini bajaradi. Ayniqsa, harbiy oliy ta'lim muassasalarida bu jarayon alohida mas'uliyat va yondashuvni talab etadi. O'zbekiston Respublikasida Uchinchi Renessans davri islohotlari doirasida ta'limga yangicha nazar, kreativ metodlar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jamoat xavfsizligi universiteti tajribasi shuni ko'rsatadiki, harbiy kadrlarni tayyorlashda dual ta'lim tizimi, praktik mashg'ulotlar, kasusli metodlar, shuningdek, kreativ o'qitish yondashuvlari orqali kursantlarda chuqur bilim, amaliy ko'nikma va huquqiy tafakkur shakllantirilmoqda. Aynan ushbu omillar kursantlarning huquqiy madaniyatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Dual ta'lim tizimi – nazariya va amaliyot uyg'unligi. 2023–2024 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida dual ta'lim tizimi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Bu tizim ayniqsa 3- va 4-kurs kursantlari uchun samarali bo'lib, ularga o'quv jarayonida o'z kasbiy faoliyatini amaliyotda sinab ko'rish imkonini beradi. Dual ta'lim – bu nazariy bilimlarni ta'lim muassasasida o'rganish va real sharoitda amaliy faoliyat bilan birga olib borishdir. Bu tizim orqali kursantlar xizmatga tayyorgarlikni real sharoitlarda o'zlashtiradilar, bu esa huquqiy bilimlarni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Huquqiy madaniyat – bu nafaqat qonunlarni bilish, balki ularni to'g'ri qo'llash, qonuniylik va etikaga asoslangan qarorlar qabul qilish madaniyatidir.

Huquqiy kommunikatsiya va huquqiy tafakkurni rivojlantirish. Zamonaviy

harbiy xizmatchi – bu huquqiy jihatdan savodli, axborotni tahlil qilish va tushuntirish qobiliyatiga ega, ijtimoiy mas'uliyatli shaxsdir. Shu boisdan, oliy harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarga huquqiy kommunikatsiya asoslarini o'rgatish ustuvor vazifadir. Sifatli huquqiy kommunikatsiya deganda quyidagilar tushuniladi: me'yoriy-huquqiy hujjatlarni to'g'ri talqin qilish; normativ ma'lumotni og'zaki va yozma tarzda tushunarli yetkazish; professional muhitda qonuniy yechimlar taklif qilish; harbiy xizmatda huquqiy va axloqiy me'yorlarga amal qilish.

Kazusli topshiriqlar – huquqiy fikrlash maktabi. Kursantlarning huquqiy madaniyatini chuqurlashtirishda kazuslar – ya'ni vaziyatli topshiriqlardan foydalanish samarali vositadir. Bu topshiriqlar real yoki model holatlarga asoslangan bo'lib, kursantlarda quyidagi ko'nikmalarni rivojlantiradi:

qonunchilikka asoslangan xulosa chiqarish; muammoli vaziyatlarda huquqiy yechimlar ishlab chiqish; tezkor tahlil va javob berish; axloqiy javobgarlikni anglash. Kazuslar, ayniqsa, yakuniy bosqichda – kursantlar real xizmatga yaqinlashganida qo'llanilgani maqsadga muvofiq. Ular orqali kursantlar hayotiy holatlarda qonun va etik me'yorlarga asoslangan qarorlar qabul qilishni o'rganadilar.

Kreativ o'qitish metodlari orqali huquqiy ongini rivojlantirish. Kreativ ta'lim – bu kursantni markazga qo'ygan, uni mustaqil fikr yurituvchi, muammolarni tahlil qila oluvchi shaxs sifatida shakllantiruvchi yondashuvdir. Harbiy ta'limda bu, masalan, quyidagi shakllarda amalga oshiriladi: rolda ijro etish (role-play) orqali xizmat vaziyatlarini modellashtirish; huquqiy debatlar va muloqotlar; guruhiiy tahlil va konsensus orqali yechim topish; “virtual sud” mashg'ulotlari orqali protsessual ko'nikmalarni rivojlantirish.

Bunday yondashuvlar nafaqat bilim, balki kasbiy huquqiy tafakkur, axloqiy barqarorlik, shaxsiy mas'uliyat va tezkor qaror qabul qilish kabi jihatlarni ham shakllantiradi. Xulosa qilib aytganda, kursantlarning huquqiy madaniyatini rivojlantirish bu – strategik muhim vazifa. Bu yo'lda dual ta'lim tizimi, kazuslar,

kreativ o'qitish metodlari kabi zamonaviy yondashuvlar asosida mustahkam nazariy bilim, amaliy ko'nikmalar, huquqiy tafakkur va kommunikatsiya, jamoada ishlash va mas'uliyatni baham ko'rish qobiliyati shakllanadi. Shu bois, harbiy oliy ta'lim tizimida huquqiy madaniyatni rivojlantirish bo'yicha izchil metodik va amaliy ishlar davom ettirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ataeva R.R. Dual ta'limni oliy harbiy ta'lim muassasalariga joriy etish samaradorligi. Yosh olimlarning ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami: YOSH OLIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI. in-academy.uz.
2. Xodiev R.X. Kreativ ta'lim. // Til va adabiyot ta'limi. Ilmiy-metodik elektron jurnal, 2023-yil, 11-son. – Toshkent, 2023.